



O'ZBEK TILINING YANGI IMLO QOIDALARI VA SOHA EGALARINING SAVODXONLIGI

Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, dotsent Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Raximberdiyev Tolibjon To'liqin o'g'li

raximberdiyevtolibjon90@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbek tilining yangi imlo qoidalari va soha egalari savodxonligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan. Unda O'zbekiston Respublikasining lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish borasidagi sa'y-harakatlari va yangi imlo qoidalarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, soha egalarining o'z faoliyatida til qoidalariga rioya qilishi ularning kasbiy va madaniy savodxonligini aks ettirishi ko'rsatilgan. Maqolada imlo qoidalari bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, ularning amaliy ahamiyati, shuningdek, zamonaviy ish yuritish jarayonlarida yangi qoidalarining o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, yangi imlo qoidalari, savodxonlik, lotin yozuvi, soha egalari, ish yuritish, til islohoti, kasbiy madaniyat.

Literacy of new spelling rules and fields of the Uzbek language

Annotation: This article is dedicated to studying the relationship between the new orthographic rules of the Uzbek language and the literacy of professionals in various fields. It analyzes Uzbekistan's efforts in implementing the Latin-based Uzbek alphabet and highlights the importance of new orthographic rules. The article emphasizes how adherence to language norms in professional activities reflects the cultural and professional literacy of specialists. Additionally, it discusses the reforms made to orthographic rules, their practical significance, and the role of these rules in modern administrative processes.



Keywords: *Uzbek language, new orthographic rules, literacy, Latin script, professionals, documentation, language reform, professional culture.*

Владение новыми правилами правописания и сферами узбекского языка.

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению взаимосвязи между новыми правилами орфографии узбекского языка и грамотностью специалистов в различных сферах. Анализируются усилия Узбекистана по внедрению узбекского алфавита на основе латиницы и подчеркивается важность новых орфографических норм. В статье акцентируется внимание на том, как соблюдение языковых норм в профессиональной деятельности отражает культурную и профессиональную грамотность специалистов. Также рассматриваются реформы орфографических правил, их практическое значение и роль этих норм в современных административных процессах.*

Ключевые слова: *узбекский язык, новые правила орфографии, грамотность, латинский алфавит, специалисты, делопроизводство, языковая реформа, профессиональная культура.*

Kirish. Til – har bir xalqning milliy boyligi, ma’naviyati va madaniyati bilan bog‘liq bebaho xazina hisoblanadi. Til insonlarning muloqot vositasi bo‘libgina qolmay, ularning o‘zaro tushunish, fikr almashish va o‘zligini anglash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, o‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasi davlat tili sifatida xalqimizning milliy iftixori va qadriyatlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. 1989-yilda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi ona tilimizning rivoji va kelajakdagi taraqqiyoti uchun ulkan ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng o‘zbek tilining maqomi, leksik qatlami va grammatik tuzilmasida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu jarayon, o‘z navbatida, yangi imlo qoidalarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Hozirgi kunda o‘zbek tilining yangi imlo qoidalari nafaqat tilimizning zamonaviy ehtiyojlariga javob berish, balki uning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining joriy etilishi bu borada muhim qadam bo‘ldi. Mazkur islohot tilimizning xalqaro



standartlarga moslashishi, kompyuter texnologiyalari va global axborot tarmog'ida keng foydalanilishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, yangi imlo qoidalari o'zbek tilining tarixiy asoslari, xalq so'zlashuv tilidan kirib kelgan yangi so'zlar va fan-texnika yutuqlari bilan uyg'unlashgan holda ishlab chiqildi.

Til islohoti, ayniqsa, soha egalari uchun alohida ahamiyatga ega. Soha egalari deganda turli kasb va faoliyat turlarida ishlayotgan mutaxassislar tushuniladi. Ularning savodxonligi esa faqatgina sohasiga oid bilim va ko'nikmalar bilan cheklanib qolmay, tilga bo'lgan munosabati, tildan to'g'ri foydalanishi va o'z fikrlarini yozma hamda og'zaki tarzda aniq ifoda etish qobiliyatini ham qamrab oladi. Bu jihatlar hozirgi davrda, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ish yuritish jarayonlarida hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish, maxsus atamalarni to'g'ri ishlatish, biznes va ilmiy sohalarda adabiy til me'yorlariga amal qilish har bir mutaxassisning kasbiy madaniyatini ifodalaydi. O'zbek tilining yangi imlo qoidalari soha egalari uchun qo'llanma sifatida muhim manba hisoblanadi. Bu qoidalar nafaqat rasmiy hujjatlar va ish yuritish jarayonlarida, balki ta'lim, ilm-fan, san'at va boshqa sohalarda ham samarali qo'llanmoqda. Masalan, atamashunoslik bo'yicha faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun yangi qoidalar turli lug'atlar va qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, yangi qoidalar xalq tilida keng qo'llanilib, ammo adabiy tilda kam uchraydigan ko'plab so'zlarning yozma tilga kirib kelishiga ham zamin yaratdi. Bu jarayon, o'z navbatida, tilimizni yanada boyitib, uni turli ilmiy va madaniy yo'nalishlarda samarali foydalanish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi.

So'zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yakdiilikka, ma'naviy jipslikka yetaklaydi. Shu ma'noda har bir xalq o'z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amali-yotga tatbiq etadi.

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarimiz 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr o'tishi bilan u eskirdi, amaliy ehti-vojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqil-likning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini



ishlab chi-qish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash ha-qida» qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo'lib, quyi-dagi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

1. Harflar imlosi:

a) unlilar imlosi (1—7-bandlar);

b) undoshlar imlosi (8—32-bandlar).

2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33—37-bandlar).

3. Qo'shib yozish (38-50-bandlar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51—56-bandlar).

5. Ajratib yozish (57—56-bandlar).

6. Bosh harflar imlosi (66—74-bandlar).

7. Ko'chirish qoidalari (75—82-bandlar).

UNLILAR IMLOSI

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o'rin ajratilgan.

'A a harfi *savol, zamon, bahor* so'zlarida «o» kabi aytilsa ham har vaqt «o» yoziladi.

''? O o harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so'zlarda «a» singari talaffuz etiladi, biroq hamisha «o» yoziladi: *koliej, monitoring, dekloratsiya, omonim, okulist* va h.k.

Shuningdek, *o* ba'zan *o'* kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir «o» yozilaveradi: *tonna, noyabr, boks, tort* va h.k.

Chiziqcha bilan yozish va ko'chirish qoidalari

1. Juft yoki takror so'zlarning o'rtasida chiziqcha ishlatiladi: *ota-ona, orzu-umid, kecha-kunduz, qing'ir-qiyshiq; tog'-tog', sekin-tez* kabi.

2. Juft so'zlar orasida *-u, -yu* yuklamalari ishlatilsa, ular birinchi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh, bola-yu chaqa* kabi.



3. Qop-qora, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri kabi kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi.
4. Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam singari o'rtasida -ma yoki -ba qo'shimchalari kelgan so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.
5. -mi, -gina (-kina, -qina), -oq (-yoq) yuklamalaridan tashqari barcha affiks yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, biz-a, keldi-da, ukasi-ku kabi.
6. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa, chiziqcha ishlatiladi: 26-uy, 6-xona, 2001-yil, 8-mart. Rim raqamlaridan so'ng chiziqcha ishlatilmaydi: xxi asr, x bob.

Ko'chirish qoidalari

1. Satrga sig'may qolgan so'zlar keyingi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi: tad-birkor, tadbir-kor, kol-lej, ma'-lum, ta'-lim kabi (tutuq belgisi birinchi bo'g'inda qoldiriladi).
2. So'z boshida kelgan yolg'iz unli hech vaqt yakka o'zi qoldirilmaydi: e'-lon emas e'lon, u-ka emas uka, mudofa-a emas mudofa-a singari.
3. So'z tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya, foto-grafiya kabi.
4. Sh, ch, ng harflar birikmasi doim birgalikda yoziladi: ko-shona, pu-chuq, de-ngiz kabi.
5. Qisqartma so'zlar, yil, oy, raqam bilan yozilgan sonlar keyingi qatorga ko'chirilmaydi: o'zmu, toshdpu, 2001, 19, xy kabi.
6. 10«a» sinf, 26-uy, 100 gr, 25 sm, 10 mm kabi ko'rinishdagi birikmalar ham bir-biridan ajratilmaydi.

Nuqta, vergul va ularning qo'llanilishi, nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o'zbek tilida tinish belgisi sifatida xix asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan. Nuqta o'zbek tilida, odatda, quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq va undov gaplardan so'ng. Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda.



O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rma. Farzandlarimiz doimo sog'lom bo'lsin.

2. Atov gaplardan keyin. Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.

3. Ism, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng. M. Behbudiy, a. Fitrat, a. Cho'lpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.s. pushkin — rus poeziyasi-ning quyoshi.

4. Nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng. Va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so'zlashuv tilida); g'.g'. (g'afur g'ulom); nav. (navoiy); toshk. (toshkent); «0'qituvchi» nashr.; 1995-y.

5. Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog'lovchilari bilan boshlanishi mumkin. Bobo dehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg'in.

6. Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqam-lardan so'ng ham nuqta qo'yilishi kuzatiladi. 21.03.2001.

7. Butunning qismlarini sanash uchun qo'llanilgan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatilishi mumkin. Tovushlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko'paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi. 2-2 — 4 (ikki karra ikki to'rt).

Vergul va uning qo'llanilishi, vergul tinish belgisi sifatida g'arbiy yevropada xv asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O'zbekcha matnlarda xx asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o'rinlarda foydalaniladi.

1. Uyushiq bo'laklar orasida. Bolalarning hulqi, odobi, yurish-turishi, ko'cha-ko'yda, mahallada o'zini tutishi, do'stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim (m. Inomova).



2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi. Uka, o'qishning erta-kechi bo'lmaydi. Men sizni, oyi-jon, juda yaxshi ko'raman. Salom sizga, purviqor tog'lar!

3. Kirish so'z va kirish birikmalardan so'ng. Shubhasiz, vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olajak. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o'zaro munosabatlarda voyaga yetadi.

4. Tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo'yiladi. Ha, hushyor bo'lish har bir fuqaroning vatan oldidagi muqaddas burchidir. Xayr, biz jo'nab ketyapmiz. Xo'sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o'ylab ko'rdingizmi?

5. Ajratilgan bo'laklar orasida. Onaga, eng ulug' zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O'zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda.

6. Bogiovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan soddagaplar orasiga. Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. Yurgan — daryo, o'tirgan — bo'yra.

7. Bogiangan qo'shma gaplarda ham vergul ishlatiladi. Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetakmalasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlatiladi. Ey, menga bir minutga qarab qo'ying.

9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul ishlatiladi. O'zaro kelishgan holda birgalikda ishlash lozim, deya ta'kidladi professor.

10. Bog'lanmagan gaplar orasida ham vergul ishlatiladi. Ishlab chiqarishning o'sishi kerak, iqtisodiy taraqqiyot esa jamiyatga xizmat qiladi.

11. Sarlavhalardan keyin foydalanish mumkin. O'rtacha yoshdagi erkaklar haqida.

12. Bir xil vazifani bajaruvchi so'zlar orasida. O'zbekiston o'zining iqtisodiy tizimini mustahkamlashda, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda bir qator o'zgarishlar amalga oshirdi.



O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimiz uchun ulkan taraqqiyot, rivojlanish, bitmas-tuganmas boy bisotini namoyish etish omili bo‘ldi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin o‘zbek tilining leksik qatlamida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar bo‘ldi: “eskirgan so‘z” tamg‘asi bo‘lgan ko‘plab leksikalar o‘z lisoniy maqomiga ega bo‘ldi, xalq tili bisotida qolib kelayotgan minglab so‘zlar yasaldi, fan-texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, huquq, sport va boshqa sohalarga oid ko‘plab yangi so‘zlar tilimizga kirib keldi; ish yuritish o‘zbek tiliga ko‘chdi, atamashunoslik qo‘mitasi tashkil etilib, turli sohalarga doir fanniy lug‘atlar tayyorlandi. Tilimiz taraqqiyoti bilan bog‘liq ushbu o‘zgarishlar, islohotlar imlo lug‘atida o‘z ifodasini topgan. Chunonchi, xalq so‘zlashuv tilida, kundalik turmushda keng qo‘llanilib, ammo o‘zbek adabiy tilida o‘z o‘rnini topa olmay yurgan ko‘plab so‘zlar ham lug‘atga kiritildi. Masalan, do‘qqi (qo‘pol), qo‘qimoq (ivirsimoq), pang‘lamoq (mog‘or bosmoq).¹

O‘zini anglagan har bir xalq, avvalo, o‘z tarixiga, ona tili va adabiyotiga e‘tibor bilan qaraydi. Ayniqsa, ona tili va uning yozuvi masalalari doimiy diqqatda bo‘ladi. Shu ma‘noda o‘zbek xalqi ham o‘z milliy yozuvini yaratish hamda uni amalda qo‘llash borasida g‘amxo‘rlik qilib kelmoqda. Aslida, hozirgi adabiy til imlo qoidalarimizga qadar juda ko‘p bosqichlardan o‘tilgan. XX asrning boshlaridan boshlab, ma‘rifatparvar bobolarimizning sa‘y-harakatlari bilan o‘zbek tili tarixida ilk marta imlo qoidalari yaratilib, takomillashib borgan.

Hozir O‘zbekistonda kirillcha va lotincha o‘zbek yozuvlaridan foydalanilmoqda. Demak, shu ikki yozuvning imlo qoidalaridan xabardor bo‘lish zamon talabidir. O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin.
2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi

¹ “O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati” Toshkent, 1999.



barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining imlo lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko‘rsinlar.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va fan hamda ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin.²

Savodxonlikning muhim qismi bu – tildan to‘g‘ri foydalanishdir. O‘z sohasiga oid maxsus atamalardan to‘g‘ri foydalanish, yozma va og‘zaki muloqotda savodli bo‘lish – har bir mutaxassis uchun zaruriy talablardir. Xususan, yozma hujjatlar – rasmiy xatlar, hisobotlar yoki boshqa ish hujjatlarini rasmiylashtirishda grammatik, stilistik va texnik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega. Masalan, yuridik sohada faoliyat olib boruvchi shaxslar qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlarni yozishda maxsus tildan foydalanadilar. Bu sohadagi xatoliklar huquqiy asoratlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, pedagoglar uchun savodli yozish va gapirish – o‘quvchilarga bilimni aniq va tushunarli yetkazib berish uchun zarurdir. Tildan to‘g‘ri foydalanish malakasini oshirish uchun grammatik qoidalarni o‘rganish, maxsus adabiyotlarni o‘qish va o‘z nutqini tahlil qilish kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu nafaqat kasbiy muvaffaqiyatga, balki shaxsiy rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy davrda texnik va texnologik savodxonlik har bir mutaxassis uchun dolzarb hisoblanadi. Soha egalarining texnologik vositalar va innovatsion texnikalarni egallash darajasi ularning samaradorligi va raqobatbardoshligini belgilaydi. Misol uchun, IT sohasida ishlaydigan dasturchilar doimiy ravishda yangi dasturiy ta’minot va texnologiyalarni o‘rganib borishlari kerak. Texnologik savodxonlik zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash, ularni ish jarayoniga joriy qilish va bu orqali ish unumdorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, korxonalarda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish menejment va hisob-kitob ishlarini

² H.Jamolxonov „Hozirgi o‘zbek adabiy tili “ Toshkent, 2005.



yengillashtiradi, bu esa xodimlarning vaqtini tejashga yordam beradi. Texnologik savodxonlikni oshirish uchun amaliyotda texnologiyalarni faol qo'llash, texnik bo'yicha o'quv kurslarida qatnashish va tegishli adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Har bir soha vakili uchun huquqiy savodxonlik – qonun-qoidalardan xabardor bo'lish, huquqiy hujjatlarni to'g'ri tushunish va ularga rioya qilish – muhim hisoblanadi. Huquqiy savodxonlikning yetishmasligi ish jarayonida turli muammolarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, tadbirkorlar o'z biznesini yuritishda soliq qonunchiligi, mehnat kodeksi va boshqa normativ hujjatlarni bilishi zarur. Bu nafaqat qonun buzilishining oldini olishga, balki biznes faoliyatini yanada samarali olib borishga imkon yaratadi. Huquqiy savodxonlikni oshirish uchun sohaga oid qonunlarni muntazam o'rganish, yuridik konsultatsiyalardan foydalanish va seminar-treninglarda qatnashish tavsiya etiladi. Soha egalarining axloqiy va madaniy savodxonligi – jamiyatda yuqori darajadagi muloqot madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir. Axloqiy me'yorlarga rioya qilish, ish jarayonida odob-axloq qoidalarini saqlash har bir mutaxassisning obro'sini oshiradi. Masalan, tibbiyot xodimlarining bemorlar bilan muomala madaniyati yoki o'qituvchilarning o'quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi ularning kasbiy muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy savodxonlikning yuqori darajasi – jamiyat rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Axloqiy va madaniy savodxonlikni oshirish uchun etik me'yorlarni o'rganish, turli madaniy tadbirlarda qatnashish va o'zini rivojlantirish ustida ishlash lozim.

Xulosalar. O'zbek tilining imlo qoidalari va soha egalarining savodxonligi — bu nafaqat tilni yaxshi bilish, balki uning madaniyati, taraqqiyoti va davlat tili sifatidagi ahamiyatini to'g'ri anglashning asosidir. Yangi imlo qoidalari va ularga amal qilish jarayoni, o'zbek tilining rivojlanishi va savodxonlik darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'zbek tili mustaqillikdan so'ng yangi bosqichga o'tdi va bu jarayonda imlo qoidalariga katta e'tibor qaratildi. O'zbek tilining imlosi hozirgi davrning talablariga mos ravishda yangilandi va takomillashtirildi. Tilmadaniyatimizni yanada boyitish, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan



sohalaridagi soʻzlarni aniq va toʻgʻri ifodalash uchun yangi imlo qoidalari ishlab chiqildi. Bu imlo qoidalari oʻzbek tilining tabiiy rivojlanishini taʼminlaydi va tilga nisbatan nufuzli munosabatni shakllantiradi. Soha egalarining savodxonligi esa imlo qoidalarining amalda qoʻllanilishi va tilni toʻgʻri ishlatishning muhim jihatlaridan biridir. Har bir sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining yozma nutqini, xususan, rasmiy hujjatlarni yozishda imlo qoidalariga qatʼiy amal qilishi talab etiladi. Savodxonlik nafaqat tilga nisbatan muhabbatni aks ettiradi, balki har bir soha vakilining professionalligi, masʼuliyati va etikasini ham koʻrsatadi. Shuning uchun davlat idoralarida, oʻqituvchilarda, jurnalistlar va boshqa mutaxassislar uchun imlo qoidalari boʻyicha treninglar va taʼlim dasturlarini tashkil etish muhimdir.

Imlo qoidalariga rioya qilish nafaqat tilni toʻgʻri ishlatishni taʼminlaydi, balki jamiyatda oʻzaro tushunish va muloqotning sifatini oshiradi. Oʻzbek tilining yangi imlo qoidalari milliy madaniyat va identifikatsiyaning muhim qismiga aylanmoqda. Bu qoidalar yordamida nafaqat til oʻrganiladi, balki insonning axloqiy va madaniy savodxonligi ham oshadi. Oʻzbek tilining zamonaviy imlosini bilish, soha vakillarining yozma ishlarini toʻgʻri yuritish esa jamiyatdagi har bir shaxsning ilmiy va axloqiy darajasini koʻrsatadi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda tilni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida oʻzbek tilining imlo qoidalari yanada takomillashdi. Yangi imlo qoidalari nafaqat tilni modernizatsiya qilishga, balki oʻzbek tilini global madaniy maydonda yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu oʻzgarishlar savodxonlikni oshirish va oʻzbek tilini xalqaro maydonda yanada tanitish uchun muhim bosqichni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, imlo qoidalariga rioya qilish va soha vakillarining savodxonligini oshirish birgalikda milliy tilimizni saqlash va rivojlantirishda asosiy rol oʻynaydi. Oʻzbek tilining imlo qoidalariga asoslanib, soha vakillarining savodxonligini taʼminlash, ular tomonidan yozilgan matnlar sifatini oshirish va tilni milliy madaniyat sifatida targʻib qilish, xalqimizning intellektual salohiyatini yuqori darajaga koʻtarishga xizmat qiladi. Bu esa oʻz navbatida, jamiyatda tilga nisbatan yuksak hurmatni shakllantiradi va davlat tili sifatida oʻzbek tilining roli mustahkamlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdug'aniyeva, N. (2008). O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent: Fan nashriyoti. – 156 bet.
2. To'xtasinov, Sh. (2013). Til madaniyati va soha savodxonligi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. – 198 bet.
3. Qo'chqorov, M. (2011). O'zbek tili va ish yuritish asoslari. Toshkent: Sharq nashriyoti. – 224 bet.
4. Niyozmetov, K. (2005). Soha terminologiyasi va uning xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Davlat Pedagogika Universiteti nashriyoti. – 142 bet.
5. Yo'ldoshev, R. (2014). Kasbiy madaniyat va muloqot asoslari. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti. – 175 bet.
6. Nurmatova, Z. (2019). Lotin yozuviga asoslangan o'zbek tili imlosi. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti. – 128 bet.
7. Rahmonov, O. (2017). Kasbiy savodxonlik va huquqiy bilimlar. Samarqand: SamDU nashriyoti. – 210 bet.
8. Karimova, N. (2020). O'zbek tili va terminologiya. Toshkent: Akademnashr. – 186 bet.
9. Asqarov, T. (2015). Til va hujjatlar bilan ishlash. Farg'ona: Ilm ziyo nashriyoti. – 134 bet.
10. Sa'dullaev, A. (2009). Til va madaniyat. Toshkent: Yangi avlod nashriyoti. – 176 bet.